

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot xizmati va jamoatchilik
bilan aloqalar kafedrası "Xalqaro jurnalistika" mutaxassisligi magistranti
Mullabayeva Azizaxon Shokirjon qizining "Global muammolarni yoritishda
axloqiy me'yorlar" mavzusida yozilgan magistrlik dissertatsiyasiga**

T A Q R I Z

Mullabayeva Azizaxon Shokirjon qizining "Global muammolarni yoritishda axloqiy me'yorlar" mavzusida yozilgan magistrlik dissertatsiyasi bugungi kunda global axborot makonida dolzarb bo'lib qolayotgan mavzuga – urush va qurolli mojarolarni ommaviy axborot vositalarida yoritish jarayonida axloqiy me'yorlarga amal qilish masalasiga bag'ishlangan. Dissertant tomonidan tanlangan mavzu o'zining nazariy va amaliy jihatlari bilan jurnalistika va axborot siyosati yo'nalishidagi muhim ilmiy-ijodiy masalalarni qamrab oladi.

Muallif zamonaviy axborot maydonida urush mavzularining qanday yoritilayotgani, bu jarayonda inson sha'nini hurmat qilish, xolislik, haqqoniylik, tinchlikparvarlik kabi axloqiy me'yorlarga amal qilinishi yoki ularga rioya qilinmasligi oqibatlarini tizimli tahlil qilgan. Ishda jurnalistika etikasi, xalqaro axborot huquqi, urush jurnalistikasi kabi sohalar doirasida chuqur ilmiy-nazariy yondashuv ko'zga tashlanadi.

Dissertatsiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Tanlangan mavzu dolzarb va hozirgi zamon talablariga mos;
- Tahlil va xulosalar mustaqil fikrga asoslangan;
- Turli mamlakatlar tajribasidan (masalan, Ukraina-Rossiya urushi, Falastin-Isroil mojarosi) amaliy misollar keltirilgan;
- Axborot axloqi bilan bog'liq ilmiy qarashlar mukammal o'zlashtirilgan va tahlil qilingan;
- Muammo yechimiga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi strukturaviy jihatdan aniq va izchil bayon etilgan hamda kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar


ro'yxatini o'z ichiga olgan. Har bir bobda mavzuga xos muammolar ko'tarilgan, tahlillar mantiqiy izchillikda keltirilgan. Foydalanilgan adabiyotlar zamonaviy, turli manbalarga asoslangan, jumladan xorijiy manbalar ham keltirilgan.

Shu o'rinda yo'l qo'yilgan bir nechta kamchiliklarni ham aytib o'tish lozim. Ish puxta va talab darajasida yozilgan bo'lsa-da, ayrim joylarda statistik va empirik dalillarning ko'proq keltirilishi dissertatsiyaning dalillilik darajasini oshirgan bo'lar edi. Shuningdek, ayrim tushunchalar (masalan, "urush estetikasi", "axloqiy neytrallik") kengroq izohlanishi maqsadga muvofiq. Ushbu kamchiliklarning barchasi juz'iy bo'lib, magistrlik tadqiqot ishining mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Mazkur magistrlik dissertasiya ishi unga qo'yiladigan barcha talablarni hisobga olgan holda, puxta yozilgan. Tanlangan mavzu talab darajasida ochib berilgan. Ushbu ish orqali dissertant universitetda olgan nazariy va amaliy bilimlarini ko'rsata bilgan va ularni amaliyotda qo'llay olishini namoyon etgan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, Mullabayeva Azizaxon Shokirjon qizining "Global muammolarni yoritishda axloqiy me'yorlar" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Rasmiy taqrizchi:



D.Sh. RO'ZIQULOV,

"Vatanparvar" birlashgan tahririyati

katta ofitseri, katta muxbir, PhD